

20-Oktyabr, 2025-yil

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA RUS TILINI O‘RGATISHNING  
DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Sultonova Xurshidaxon Sobirxon qizi**

Namangan viloyati, Kosonsoy tumani

14-sonli umumta’lim maktabining rus tili fani o‘qituvchisi

---

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayonida didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Til o‘rganishning psixologik-pedagogik asoslari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ularning o‘quv motivatsiyasini oshirishda innovatsion metodlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yin, qo‘shiq, multfilm, pantomima va sezgi asosidagi mashg‘ulotlarning ta’siri orqali o‘quvchilarda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *didaktik imkoniyatlar, rus tili, boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metod, o‘yin texnologiyasi, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya.*

---

**Аннотация** *В статье рассматриваются дидактические возможности обучения русскому языку учащихся начальных классов. Анализируются психолого-педагогические основы изучения языка, возрастные особенности учеников и значение инновационных методов в повышении учебной мотивации. Особое внимание уделено применению игровых, музыкальных, мультимедийных и сенсорных технологий, способствующих развитию коммуникативной компетенции у младших школьников.*

**Ключевые слова:** *дидактические возможности, русский язык, начальное образование, инновационные методы, игровые технологии, коммуникативная компетенция, мотивация.*

---

**Abstract:** *This article explores the didactic opportunities for teaching the Russian language to primary school students. It analyzes the psychological and pedagogical foundations of language learning, age characteristics of pupils, and the importance of innovative methods in increasing learning motivation. Special attention is given to the use of games, songs, cartoons, pantomime, and sensory-based activities that develop communicative competence in young learners.*

**Keywords:** *didactic opportunities, Russian language, primary education, innovative methods, game-based learning, communicative competence, motivation.*

---

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi ta’lim standartlarini ishlab chiqish, o‘quv dasturlari va darsliklarni modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, o‘qitish uslublarini yangilash zaruratini ham keltirib chiqardi. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchi shaxsini har tomonlama

rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, keng dunyoqarashli, kommunikativ savodxon shaxsni shakllantirishdan iborat hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda chet tillarini, xususan, rus tilini o‘qitish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalar bu yo‘nalishdagi faoliyat uchun mustahkam huquqiy va metodik asos yaratdi. Natijada, ta‘lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari yetakchi o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchidan yuksak didaktik mahorat, psixologik yondashuv va ijodkorlik talab etiladi. Chunki aynan shu davrda bolaning tili, nutqi, eslab qolish, idrok va tafakkur jarayonlari shakllanadi. Rus tili o‘qitishning didaktik imkoniyatlari keng bo‘lib, ular o‘quvchilarda nutq faoliyatini rivojlantirish, og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurni kuchaytirish hamda madaniyatlararo muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinfda bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi o‘yin, qo‘shiq, rasm, pantomima, multfilm, sezgi asosidagi mashg‘ulotlar kabi bolalarga mos va qiziqarli metodlardan foydalanishi zarur.

Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish, ularni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llash yo‘llarini aniqlash ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqola aynan shu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarning natijalariga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayoni o‘ziga xos psixologik, pedagogik va lingvodidaktik xususiyatlarga ega. Mazkur bosqichda o‘quvchilar tilni tabiiy nutq muhiti orqali, o‘yin, musiqiy faoliyat, vizual ko‘mak va muloqot jarayonida tezroq o‘zlashtiradilar. Shuning uchun bu yoshda grammatik qoidalarga asoslangan nazariy ta‘limdan ko‘ra, tilni amaliy nutq faoliyati orqali o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Til o‘qitish jarayonida o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarda o‘rganilayotgan tilga nisbatan ijobiy motivatsiya uyg‘otish, ularni faol muloqotga jalb etish va eshitish, ko‘rish, sezish orqali o‘zlashtirishga imkon yaratishdir. Shu ma’noda, didaktik imkoniyatlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunda o‘yin texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Masalan, “Кто быстрее найдёт?” (Kim tez topadi?) o‘yini orqali o‘quvchilarda e‘tibor va tezkor fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. “Продолжи слово” (So‘zni davom ettir) o‘yini esa lug‘at boyligini oshirib, so‘zlarni grammatik shakllarda qo‘llashga yordam beradi. Shuningdek, “Составь рассказ по картинке” (Rasm asosida hikoya tuz) mashg‘ulotlari o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, mantiqiy izchillik va ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, musiqa va qo‘shiqlar orqali o‘qitish, multfilmlar asosida tahlil qilish, pantomima usuli, sezgi a‘zolari orqali o‘rganish kabi metodlar ham samarali natija beradi. Masalan, bolalar rus tilidagi multfilmlarni tomosha qilish jarayonida so‘zlarning ma‘nosini bevosita tushunmasalar-da, harakat va kontekst orqali ularni bog‘lay oladilar. Bu esa tilni tabiiy idrok etish va nutqni

20-Oktyabr, 2025-yil

mustahkamlashga yordam beradi. O‘yin va interaktiv usullar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlarda har bir o‘quvchi faol ishtirok etadi, dars jarayoni esa qiziqarli, jonli va esda qolarli kechadi. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchilarning o‘zaro muloqotini kuchaytirib, ularni jamoada ishlashga o‘rgatadi. Didaktik imkoniyatlar shundan iboratki, ular o‘quvchilarni nafaqat til o‘rganishga, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muloqot qilish va o‘z fikrini aniq ifoda etishga o‘rgatadi. Til o‘rganish jarayonida ko‘rgazmali qurollardankartochkalar, rasmlı materiallar, interfaol doskalar, audio-video vositalardan keng foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘rish va eshitish orqali idrok etilgan so‘z va iboralar o‘quvchi xotirasida uzoq saqlanadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitishda o‘yin, qo‘shiq, pantomima, sezgi asosidagi mashg‘ulotlar, multfilmlar va interfaol texnologiyalarni uyg‘un qo‘llash o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda didaktik imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiradi, til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi hamda nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi. O‘yin, qo‘shiq, pantomima, multfilm va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchi darsni tabiiy, qiziqarli va emotsional muhitda olib boradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, boshlang‘ich ta‘lim tizimida rus tilini o‘qitish jarayonida didaktik yondashuvlar asosida ishlash nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilar shaxsining har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Дидактическая концепция формирования коммуникативной успешности младших школьников / Под ред. А.И.Гришанова. – Ижевск.: 2010. – 136 с.
2. Власова Н. С. Русский язык как иностранный. Базовый курс 1 (спонсорным словарем на английском и немецком языках). Учебник для детей русскоязычных эмигрантов. Типография Гутенберг, 2009. 204 с.
3. Вольнова Д. Н., Меланченко Е. А. Организация процесса обучения русскому языку как иностранному: актуальные проблемы преподавания русского языка как иностранного, роль преподавателя и учащегося в процессе обучения // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 8.  
Пранцова Г. В. Обучение школьников драматическому типу словесного
4. художественного творчества на основе фантастического вымысла.// Русский язык в школе. 2001 № 5. –С.15
5. Боброва, С.В. Формирование языковой культуры на уроках русского языка / С.В. Боброва // Русский язык в школе. – 2010. – №4. – С. 9-16.